



NUTQDA LEKSEMALARNING BIRIKUV XUSUSIYATLARI

Shohida Karimboyeva

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI turkiy tillar fakulteti o'zbek tili kafedrasi o'qtuvchisi

Mo'minjonova Mo'nixon

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI turkiy tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2 - kurs talabasi

To'raboyeva Farangiz

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI turkiy tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2 - kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutq birliklari va ularning til birliklariga bo'lgan munosabati kabi masalalar o'rganilgan. Xususan, nutq birliklaridan bo'lgan tovush, so'z birikmasi, so'z va gaplarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Kalit so'zlar: tovush, leksema, fonema, morfema, nutq munosabatlari, gap, predikativlik va intonatsiya, til birligi, modallik.

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng harakterli ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyroq til tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya'ni gapirish, til belgilarining eshitish a'zolari tomonidan idrok qilinadigan (ovoz yozib oluvchi uskunalar yordamida qayd etiladigan va qayta takrorlanadigan) artikulyasiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi. Nutq birligi bo'lgan tovushlar xususiylik sifatida tilning ashyosi, moddiy materiali bo'lib, fizik, akustik, fiziologik hamda lingvistik (lisoniy) kabi qator belgilarga egaligi bilan o'ziga xosdir. Anig'i, tovushning talaffuzi, ta'sir qilishi, sezgi uyg'otishi, balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi, aniqligi kabi qator xususiyatlari borki, bular fonetikaning fizik - akustik, anatomik - fiziologik, pertseptiv va lingvistik - funktsional aspektlari deb qaraladi. Asl nutq ("tashqi nutq") bilan bir qatorda ichki nutq ham bor. U so'zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarni muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida, tovush yoki yozuv qo'llanmagan holda, faqat ovozli nutqdagi so'zlar haqidagi aniq tasavvurlar bilan kechadigan aksiy jarayonlar tarzida amalga oshadi. Yozma nutq



og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlarning bevosita qo'llana olmasligi bilan farqlanadi. nutqning monologik. Har bir kishining nutq individual, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi; vaholonki, asosiy til unsurlari — lug'at tarkibi va grammatik qurilishi yakka shaxslargagina tegishli bo'lmay, umumnikidir, ya'ni muayyan til jamoasiga umuman taalluqli bo'ladi. Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi. Nutq tufayli va nutq asosida borliqni umumlashgan holda mavhumiy aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib, jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin bo'ladi. Nutq madaniyati, uning asosiy mezonlari Nutq madaniyati og'zaki va yozma adabiy til normalariga (talaffuz qilish qoidalari, stress, foydalanish, grammatika, uslub), shuningdek, nutqning maqsad va mazmuniga muvofiq turli xil aloqa sharoitlarida tilning ekspressiv vositalaridan foydalanish qobiliyatidir. Nutq madaniyati mezonlari: aniqlik to'g'ri va mantiqiy aloqa muvaffaqiyatning ifodasi aniqlik, boylikning mavjudligi bog'liqlik tozalik estetikasi, uy vazifasi. Bayonotlardan birini yozing: uchta ma'ruzachilar toifasi mavjud: ba'zilarini tinglash mumkin, boshqalarini tinglash mumkin emas, boshqalarini tinglash mumkin emas. Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz qoidalarga bo'ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi.

Xulosa:

O'quvchilar, imkoni boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishga o'rganishlari kerak. O'qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Gap predikativlik ifodasiga ega bo'lib, bu uning grammatik belgisi sifatida zamon, shaxs, modallik, mayl kabi grammatik sistemalarni-kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Ayni vaqtda gapning predikativlikka ega bo'lishining o'zi bu birlikning o'ziga xos fonetik shakllanishini ham taqozo qiladi: predikativlik mavjud bo'lgan joyda, albatta, intonasion shakllanish ham bo'ladi. U gapning boshlanish va tugash chegaralarini ko'rsatadi, jumladan, delimitativ (chegaralash, ajratish) funksiyani bajaradi. Kishilarning o'zaro aloqa qilishlari gap orqali amalga oshirilgani uchun intonatsiya ham predikativlik kabi kommunikativ vazifani bajaruvchi vosita bo'lib, u gapning uchinchi muhim belgisidir. Shunday qilib, gap obyektiv borliqni kishining unga munosabati orqali ifodalaydigan leksik-grammatik va intonatsion butunlikdan iborat bo'lgan alohida



nutqiy formadir, nutq faoliyatidir. Gap nutq birligi-sintaktik birlik sifatida ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra muayyan turlarga ajraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М. Адабий норма ва нутмаданияти Т., "Фан", 1983 й.
2. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.N.T.Omonov, N.X.Xojaev, S.A.Madiyarova, Ye.I.Eshchonov.T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009.
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
4. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

